
Farg'ona viloyati hokimligida murojaatlar bilan ishlash borasida 2020 yilning 1-choragi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tahliliy AXBOROT

Farg'ona viloyati hokimligi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan kelib tushgan murojaatlarni o?z vaqtida ko?rib chiqish hamda ularda ko?tarilayotgan masalalarini belgilangan tartibda qonuniy hal etish choralarini ko?rilmoqda.

Shu yilning 1-choragi davomida viloyat hokimligiga 5 104 ta murojaatlar kelib tushdi. Shundan, O?zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari elektron tizimi orqali 3 465 ta, viloyat hokimligiga to?g?ridan-to?g?ri 919 ta yozma va 720 ta og?zaki murojaatlardir.

Murojaatlarning aksariyati uy-joy bilan ta?minlash va ta?mirlash, uy-joy qurish va tadbirdorlik bilan shug?ullanish uchun yer maydonlari ajratish, moddiy yordam ko?rsatish, bank krediti ajratish, kommunal sohalardagi muammolar hamda oilaviy munosabatlar masalalaridir.

Eng ko?p murojaatlar Farg'ona (791 ta), Qo?qon (502 ta), Marg?ilon (347 ta) shaharlari, O?zbekiston (393 ta), Rishton (337 ta), Quva (327 ta), Oltiariq (307 ta) tumanlari hisobiga to?g?ri kelmoqda.

Murojaatlar ko?p tushayotgan hududlarda yashovchi jismoniy va yuridik shaxslar vakillari bilan to?g?ridan-to?g?ri muloqotni yanada kengaytirish, muammolarni joyida bartaraf etish maqsadida o?tkazilgan 7 ta ommaviy sayyor qabullar davomida 263 nafar fuqarolar qabul qilindi. Shuningdek, viloyat hokimi va o?rinbosarlari tomonidan o?tkazilgan shaxsiy va sayyor qabullarda 457 nafar aholi vakillarining murojaatlari ko?rib chiqildi.

2020 yilning 1-choragida murojaatlarning kelib tushishi o?tgan yilning shu davriga nisbatan 1 871 taga kamaydi va ularning 53,3 foizi ijobjiy hal etildi.

Viloyat hokimligi kelgusida ham murojaatlar bilan ishlash samaradorligini oshirish va ularni o?rganish natijalari bo?yicha ochiqlik va shaffoflikni ta?minlash choralarini ko?rib boradi.

Farg'ona viloyati hokimligi ?xborot xizmati

[Facebook](#), [Telegram](#), [Veb sayt](#), [YouTube](#)

2020-05-07 13:34:18